Innovative Development in Educational Activities ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2023
Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938 http://sjifactor.com/passport.php?id=22323

# BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARIDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Dungalov Toshtemir Shukurullayevich**
JDPU. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti

***Annotatsiya.*** *Bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida milliy qadriyatlardan foydalangan holda ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xalq o‘yinlari, milliy sport turlari, tajriba, sinov, blits.*

# СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

***Аннотация.*** *Разработка методических основ совершенствования научно-методического обеспечения будущих специалистов физической культуры с использованием национальных ценностей.*

***Ключевые слова:*** *Народные игры, национальные виды спорта, опыт, зачет, блиц.*

# IMPROVING THE MECHANISMS OF FORMING MORAL VALUES IN FUTURE PHYSICAL EDUCATION SPECIALISTS

***Abstract.*** *Development of methodological bases for improving the scientific-methodological support of future physical education specialists using national values.*

***Key words:*** *Folk games, national sports, experience, test, blitz.*

## KIRISH

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, milliy sport turlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirishda oxirgi yillarda mamlakatimizda keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda. Sport sohasidagi ulkan islohatlar va

erishilayotgan yuksak natijalar mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan oqilona davlat siyosatining mahsulidir. Mustaqil davlatimizni buyuk davlatga aylantirish mas’uliyati shu o‘lkada yashayotgan har bir ongli fuqaro jumladan, jismoniy madaniyat soha mutaxassislari hamda sportchilar zimmasiga ham ulkan va sharafli vazifalar qo‘yadi. Jamiyatimizda kelajagimiz bunyodkori bo‘lgan yoshlarga e’tibor juda katta. Ayniqsa yoshlarning ta’lim-tarbiya sog‘ligini saqlash, jismoniy tarbiya sohasidagi ijobiy o‘zgarishlarni har qadamda sezish mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalq o‘yinlarini to‘plash, unitilayotganlarini tiklash va ulardan keng xalq ommasida foydalanishni targ‘ib qilish barkamol avlod tarbiyasidagi muhim bosqichlardan iborat ekan. Bu borada ham yurtimizda ko‘pgina mutaxassis va olimlarimiz samarali faoliyat olib bormoqda. Jumladan, J.T. Toshpo‘latov va R.X. To‘laganovlar, I.X. To‘raqulova, M.A.Aslanova, F.A.Kerimov, I.X.Qosimova, T.S.Usmonxo‘jaev va H.Melievlar, R.Qosimova, F.K.Axmedov, U.Qoraboev, F.Qurbonova, J.Eshnazarov va boshqalarning tadqiqot ishlari mazkur sohadagi tadqiqot ishlarini rivojlantirishga didaktik asoslar bo‘la oladi.

Yurtimizdagi ulug‘ allomalarimiz va mutaffakkurlarimiz ham befarq bo‘lmagan. Buni ulardan bizgacha yetib kelgan boy ma’naviy merosdan ham anglashimiz mumkin. Bu haqda Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Abu Rayhon al – Beruniy, Alisher Navoiy, Husayin Voiz Koshifiy, Zayniddin Vosifiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Fosih Havofiy, Yusuf Xos Hojib, Salohiddin Toshkandiy kabi donishmandlarimizdan qimmatli manbalar qolgan.

## NATIJALAR

O‘tkazilgan tajriba sinov tadqiqotlarining natijalarini aniqlash maqsadida test va sinov javoblar o‘tkazildi undan tashqari talabaarning o‘zlashtirishlaridagi o‘zgarishlarni xisobga olgan xolda oldingi va tajriba ishlaridan keyingi natijalarning solishtirildi. Nazorat guruxidagi olib borilgan kuzatuvlar talabaarning ma’naviy qadriyatlarga oid fikrlash faolligi tahlili ko‘rib chiqildi.

**Talabalarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid qarashlarini o‘rganishga “BLITS” –o‘yin asosida tajriba sinov ishlaridan oldingi natijalari**

| 930-22 guruxda<br>Tajriba guruhi | 931-22 gurux<br>Nazorat guruhi |
|---|---|
| 2 ta a’lochi – 9.5 % | 4 ta a’lochi – 21 % |
| 8 ta yaxshi - 38.5 % | 10 ta yaxshi – 52.6 % |
| 11 ta qoniqarli - 52 % | 5 ta qoniqarli – 26 % |

**Talabalarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid qarashlarini o‘rganishga “BLITS” –o‘yin asosida tajriba sinov ishlaridan keyingi natijalari**

| 930-22 guruxda<br>Tajriba guruhi | 931-22 gurux<br>Nazorat guruhi |
|---|---|
| 6 ta a’lochi – 28 % | 4 ta a’lochi – 21 % |
| 13 ta yaxshi - 61.9 % | 10 ta yaxshi – 52.6 % |
| 2 ta qoniqarli – 9.5 % | 5 ta qoniqarli – 26 % |

## MUHOKAMA.

Ushbu bosqichda biz talabaarni ma’naviy qadriyatlarga oid bilimlarini ijodiy fikrlash darajasini tekshirish maqsadida eng avvlo, ikkita guruhni belgilab oldik**,** 930-22 va 931-22 gurux talabaarini bugungi kundagi iqtidori, fikrlashining darajasini aniqlashtirib oldik. Ushbu guruh rahbari bilan guruhdagi talabaarning bilim darajasi ixtisoslik fanlari darslaridagi mashg‘ulotlarning va to‘garak mashg‘ulotlarining olib borilishi haqidagi ma’lumotlarini o‘rganib chiqdim. Yana talabalarning ijodiy fikirlashga o‘rgatish uchun qanday usullarni amalga oshirilishi, ma’naviy qadriyatlarga oid bilimlarni berishda yangi pedagogik texnalogiyalarga oid anketa – so‘rovlar o‘tkazildi. Anketa so‘rovlar natijasida shular aniqlandiki, talabaarda ma’naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar an’anaviy darslarda umumiy mavzu sifatida o‘tib ketilgan.

Talabalarning ijodiy fikirlash darajasini o‘rganib chiqish uchun ularni kuzatdim, test va mantiqiy savollar berib ko‘rdim. Har ikki guruxni bir – biriga solishtirdik. Olingan natijaldarga ko‘ra, tajriba sinov ishlarini boshladik. 930-22-gurux talabaarining ma’naviy fikrlash doirasi bir muncha pastroq ekanligini xisobga olib, 930-22 guruxni kuzatuv nazorat guruxi 931-22 guruxni tajriba – sinov sifatida tanlab oldik.

930-22-guruxda mutaxassislik darslarida talabalarga ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish uchun turli xil interfaol usullar yangi pedagogik texnalogiyalarni qo‘llagan xolda darslar tashkil etildi. mutaxassislik darslarida talabaarni ijodiy fikrlashga undovchi muxim usullar va tajribalarni qo‘llab, talabalarni guruhlarga bo‘lgan xolda turli topshiriqlar berildi. Jumladan;

Topshiriq. Talabalarni milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid qarashlarini o‘rganishga “BLITS” –o‘yin.

## XULOSA.

Maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘rta umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalari, oliy ta’lim muassasalari, oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalarida, ishlab chiqarish korxonalarida, ijtimoiy va iqtisodiy hamda

ma'muriy tashkilotlarda, shuningdek mahallalarda turli xil sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish va ularga shart – sharoit yaratish masalari bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Hozirda bunday muammoni hal qilishga oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, xususan, o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi markazida va uzluksiz ta'lim tizimining boshqa barcha tarkibiy qismlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis – olimlar hamda mutasaddi kishilar jalb qilingan. Bunga sabab ular yordamida va ijodi namunalari negizida ushbu sohadagi ta'lim – tarbiya jarayonining innovatsion uslub va texnologiyalarini yaratish mumkin hamda ular asosida raqobatbardosh zamonaviy kadrlar tayyorlashga erishish mumkin. Bu bevosita o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi tizimining Olimpiya zahiralari kollejlariga ham tegishli bo'lib, ularda tayyorlanadigan Milliy Sport Turlari bo'yicha Murabbiy Oqituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashda huquqiy va didaktik asoslardir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ёшлар маънавиятини юкалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та мухим ташаббус. // "Халқ сўзи" газ. – Т. 2019. - № 54 (7284). – Б. 1.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va unung halqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari тўғрисида"ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. www.lexuz
3. Абдиев Р., Шарипов Ҳ. Баркамол соғлом авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг ўрни ва аҳамияти // Ўзбекистон ёшлари ўртасида жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш муаммолари: Олий таълим муассасалари илмий – назарий анжуман материаллари. – Т., 2008.
4. Абдумаликов Р. Инсоният руҳий оламига сайёҳатлар. – Т. 2006.
5. Абдурахмонов А. Қадрият – маънавий меросдир. // "Маърифат гулшани" газ. – Т. 2007.
6. Hasanov A. TA'LIM MUASSASALARIDAGI TURISTIK SAYOHAT TO'GARAKLARI ISHTIROKCHILARINI UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI TASHKIL QILISH: TA'LIM MUASSASALARIDAGI TURISTIK SAYOHAT TO'GARAKLARI ISHTIROKCHILARINI UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI TASHKIL QILISH //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
7. Hasanov Anvar Toxirovich. (2023). KICHIK YOSHDAGI VOLEYBOLCHILARDA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA

NOAN’ANAVIY O‘YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Innovative Development in Educational Activities, 2(8), 622–626. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1224

8. Hasanov Anvar Toxirovich, & Asqarova Zaynura. (2023). 11-15 YOSHLI SUZUVCHILARNING MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI REJALASHTIRISH XUSUSIYATLARI. Innovative development in educational activities, 2(8), 627–630. https://doi.org/10.5281/zenodo.7886219

9. Hasanov Anvar Toxirovich. (2023). YOSH VOLEYBOLCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHINI O‘RGANISH. Innovative Development in Educational Activities, 2(8), 616–621. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1222

10. hasanov, anvar. (2023). KICHIK YOSHDAGI VOLEYBOLCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHINI O‘RGANISH: KICHIK YOSHDAGI VOLEYBOLCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHINI O‘RGANISH. Физическое воспитание, спорт и здоровье, 1(1). извлечено от https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/pshedu/article/view/8550

11. Toxirovich H. A. et al. SPORT MAKTABLARIDA ERKIN KURASH SHUG‘ULLANUVCHILARI KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK JARAYONI KONTINGENTINI SAQLASH MUAMMOLARI: 10.53885/edinres. 2022.96. 28.087 Hasanov Anvar Toxirovich JDPI Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi o‘qituvchisi Rahimov II, Aralov DT, Davronov VY JDPI Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi 2-kurs magistri. anvarhasanov111111@ gmail. com //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 683-686.

12. Hasanov A. YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI QO‘L TO‘PI MASHG‘ULOTLARIDA TEZKORLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI: YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI QO‘L TO‘PI MASHG‘ULOTLARIDA TEZKORLIK VA CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI //Физическое воспитание, спорт и здоровье. – 2022. – №. 4.

13. hasanov, anvar. (2022). XOTIN-QIZLAR SPORTINI SAMARADORLIGINI OShIRIShDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARNING O‘RNI: XOTIN-QIZLAR SPORTINI SAMARADORLIGINI OShIRIShDA OMMAVIY SPORT TADBIRLARNING O‘RNI. Jismoniy Tarbiya, Sport Va Salomatlik, 2(2). Retrieved from https://pshedu.jdpu.uz/index.php/pshedu/article/view/6059